

## JINOYAT SUBYEKTI VA SUBYEKTIV TOMON

Zokirov Jamshid Toshpulatovich

Muxammadiyeva Muhayyo Alisher qizi

Jizzax viloyati yuridik texnikum o‘quvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14227732>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jinoyat tarkibida subyektiv tomonning mavjud yoki mavjud emasligi, jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi, obyektiv tomondan o‘xshash bo‘lgan jinoyatlarni bir-biridan farqi, jinoyat tarkibining fakultativ belgilari haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** jinoyat tarkibi, subyekt, subyektiv tomon, ayb, motiv, maqsad, qasd, to‘g‘ri qasd, egri qasd.

### CRIMINAL SUBJECT AND SUBJECTIVE PARTY

**Abstract.** This article describes the presence or absence of the subjective side of the crime, the necessary signs of the subjective side of the crime, the differences between objectively similar crimes, and the optional signs of the crime.

**Key words:** composition of the crime, subject, subjective side, guilt, motive, purpose, intention, right intention, wrong intention.

### ПРЕСТУПНЫЙ СУБЬЕКТ И СУБЬЕКТИВНАЯ СТОРОНА

**Аннотация.** В данной статье описываются наличие или отсутствие субъективной стороны преступления, необходимые признаки субъективной стороны преступления, различия между объективно сходными преступлениями, а также факультативные признаки преступления.

**Ключевые слова:** состав преступления, субъект, субъективная сторона, вина, мотив, цель, умысел, правильный умысел, неправильный умысел.

Jinoyatning subyektiv tomoni deb shaxsning o‘z ijtimoiy xavfli qilmishiga va undan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatiga bo‘lgan ruhiy munosabatiga aytildi. Subyektiv tomon jinoyat tarkibining ichki tomonini ifodalaydi.

Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir. Jinoyatning motivi va maqsadi jinoyat tarkibi subyektiv tomonining fakultativ belgilari hisoblanadi. Jinoyatning subyektiv tomonining ahamiyatini quyidagilarda ifodalash mumkin:

1) jinoyat tarkibida subyektiv tomonning mavjud yoki mavjud emasligi qilmishni jinoyat ekanligi yoxud jinoyat emasligini aniqlab beradi.

Qilmish sodir etilgan vaqtda har qanday harakat yoki harakatsizlik qasddan yoki ehtiyoitsizlikdan sodir etiladi va subyekt kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatni anglashi yoxud anglashi lozimligi talab qilinadi;

2) obyektiv tomondan o‘xhash bo‘lgan jinoyatlarni bir-biridan farqini ajratib beradi.

Xususan, qasddan bila turib, boshqa shaxsni OIV kasalligi/OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirish yoki unga OIV kasalligi/OITSni yuqtirish (JK 113-modda 4-qism) jinoyatidan, ehtiyoitsizlik orqasida shaxsning kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi (JK 113-modda 5-qism) jinoyatining farqlari asosan jinoyatning subyektiv tomonini tahlil qilish orqali aniqlanadi;

3) jinoyat subyektiv tomonining mazmuni qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda ham muhimdir. Masalan, ehtiyoitsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan qasddan sodir etiladigan jinoyatlarga og‘irroq jazo tayinlanadi. Shunga ko‘ra, jinoyat subyektiv tomoni javobgarlikning xususiyati va jazo miqdoriga ham ta’sir qiladi. Ya’ni jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holat (JK 55–56-moddalar) deb topishda (Masalan, g‘arazli yoki boshqacha past niyatlarda, irqiy yoki milliy dushmanlik yohud adovat zamirida va hokazo) yoki qonunda ko‘rsatilganidan ham yengilroq (JK 57-modda) jazo tayinlashda, mahkumga tegishli jazoni ijro etuvchi muassasani tanlashda, javobgarlikning ayrim turlaridan ozod qilishda jinoyat subyektiv tomonining jinoyat tarkibi doirasiga kirgan va kirmagan zaruriy belgilari muhim ahamiyatga ega.

Ayb – shaxsning sodir qilgan ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligiga hamda uning ijtimoiy xavfli oqibatiga qasd yoki ehtiyoitsizlik shaklidagi ruhiy munosabatidir. Ayb o‘zida ikkita elementni, ya’ni tafakkuriy va irodaviy holatlarning birlashishidan shakllanadigan subyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyat subyektining ruhiy holatida yuz beradigan tafakkuriy va irodaviy jarayonlarning jadalligi asosida ayb shakllanadi va o‘z navbatida ayb qasd shaklidagi hamda ehtiyoitsizlik shaklidagi ayblarga bo‘linadi. Har bir shakldagi ayb ham o‘z navbatida turlarga bo‘linadi. Qasd shaklidagi aybning tushunchasi JKning

21-moddasi, ehtiyoitsizlik shaklidagi aybning tushunchasi JKning 22-moddasida ko‘rsatilgan.

Agar jinoyatni aybning ikki shaklida ham sodir etish mumkin bo‘lsa, aybning shakli JK Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida, alohida-alohida ko‘rsatiladi. Masalan, badanga og‘ir shikast yetkazish qasddan ham, ehtiyoitsizlikdan ham sodir qilinishi mumkinligi sababli JK 104-

moddasida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, JK 111-moddasida ehtiyotsizlik orqasida badanga og‘ir shikast yetkazish uchun javobgarlik belgilangan.

Agar jinoyatni aybning qaysi shakliga tegishliligi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, jinoyatlar JKning Maxsus qismi moddasi dispozitsiyaning mazmuniga ko‘ra aniqlanadi. Masalan, JK 116-modda “Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik”, JK 207-modda “Mansabga sovuqqonlik bilan qarash” kabi jinoyatlarning dispozitsiyasi mazmunidan ko‘rinib turibdiki, bu jinoyatlar ehtiyotsizlik orqali sodir qilinadigan jinoyatlar guruhiga kiradi.

Ayrim jinoyatlarda ayb shakli aniq ko‘rinib, mazkur jinoyatlarni mantiqan ham ehtiyotsizlik orqasidan sodir etib bo‘lmaydi. Masalan, nomusga tegish, tuhmat, haqorat qilish, pora olish va hokazolar.

Sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglash qilmishning haqiqiy mazmunini, ijtimoiy xavfli ahamiyatini tushunishdan iboratdir.

Agar shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo‘lsa, bunday jinoyat to‘g‘ri qasddan sodir etilgan deb topiladi. (JK 21-moddasi 3-qismi).

To‘g‘ri qasdning 3 ta belgisi mavjud:

- 1) qilmishning ijtimoiy xavflilagini anglash;
- 2) qilmishning ijtimoiy xavfli oqibatini oldindan bilish;
- 3) ijtimoiy xavfli oqibatning yuz berishini istash

Yuqoridagi 3 ta belgi faqat to‘g‘ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarga xosdir.

Jinoyat qonunchiligida egri qasd eventual qasd deb ham nomlanadi. Eventual (lot. *eventus* – holat) – muayyan holatdagi favqulodda qasd degan ma’noni anglatadi.

Egri qasdning 3 belgisi mavjud:

- 1) qilmishning ijtimoiy xavflilagini anglash;
- 2) qilmishning ijtimoiy xavfli oqibatiga ko‘zi yetgan;
- 3) ijtimoiy xavfli oqibatni yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yish

Jinoyat kodeksining 22-moddasida aybning ehtiyotsizlik shakliga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat deb topiladi”.

Jinoyat o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilganda aybdor vaziyatni anglagan holda ehtiyot chorasini ko‘rmay, ushbu xatti-harakat qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatni keltirishi mumkinligini oldindan bila turib (tafakkuriy holat), asossiz ravishda bunday oqibat yuz bermaydi deb (irodaviy holat) hisoblaydi.

Ya’ni aybdor vaziyatni baholashga yengiltaklik bilan munosabatda bo‘ladi va natijada u tayangan omillar o‘z xususiyatiga ko‘ra aybdor o‘ylagan holatni yuzaga keltirmaydi.

“Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yeta turib ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo‘lsa, bunday jinoyat o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi”.

O‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir qilingan jinoyat egri qasddan sodir qilinadigan jinoyatga o‘xshashdir. Biroq egri qasdda aybdor ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqish xavfini real, aniq oldindan ko‘ra biladi, o‘z-o‘ziga ishonishda esa ijtimoiy xavfli oqibatlar mavhum: shaxs o‘z harakatlari natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko‘ra biladi, ammo ushbu oqibatlar yuz bermaydi deb hisoblaydi.

Agar jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishda aybdor ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishini oldindan tasavvur etishi mumkin bo‘lsa, jinoiy beparvolikda aybdor oqibatni oldindan ko‘ra bilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

“Agar jinoyat sodir etgan shaxs o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi”.

Yuqoridaq ta’rifdan anglash mumkinki, shaxs jinoiy beparvolikda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglaydi. Ya’ni shaxs oqibat kelib chiqishi mumkinligini ham, realligini va (yoki) mavhumligini ham oldindan bilmaydi.

Shunday qilib, jinoiy beparvolikda shaxs o‘z xatti-harakatlarining ijtimoiy xavflilagini anglash ham, ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish ham mavjud bo‘lmaydi. Demak, shaxs muayyan vaziyatda qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishini nafaqat ko‘ra bilishi shartligi (obyektiv mezon), balki o‘z individual xislatlari va qobiliyatlari bilan oldindan ko‘ra olishi mumkinligi (subyektiv mezon) isbotlangan taqdirdagina jinoiy beparvolik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Motiv (lotincha) “moveo” – harakat qilish degan ma’noni anglatib, u shaxs tomonidan u yoki bu harakatni sodir etishda qo‘zg‘atuvchi kuch hisoblanadi.

Dunyodagi barcha insonlarda motiv mavjuddir. Kimdir hayotda boy bo‘lishni, kimdir o‘qishda, ishda yuqori lavozimlarga ko‘tarilishni istaydi, yana kimdir juftini sevgani sababli rashk qiladi va boshqalar. Bularning barchasi shaxs ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan ichki qo‘zg‘atuvchi motivlardir.

Motiv va maqsad jinoyat tarkibining fakultativ belgilari hisoblanib, barcha jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ham inobatga olinmaydi.

Biroq, jinoyatning dispozitsiyasida motiv va maqsad nazarda tutilgan bo‘lsa, jinoyat motivi va maqsadi zaruriy belgiga aylanadi hamda qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatadi.

Motiv o‘z-o‘zidan jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanmaydi, ammo jinoyat motivini isbotlash orqali aybdorning jinoyat sodir etishining sababini bilish imkonи tug‘iladi. Biroq bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyat arzimagan sabab yoki hech qanday sababsiz ham sodir etilishi mumkin.

Demak, jinoyat motivi – jinoyat sodir etishda shaxsni boshqargan va jinoyat sodir etishga qaror qildirgan shaxsning muayyan ehtiyoj va manfaatlarini o‘z ichiga olgan ichki qo‘zg‘atuvchi kuchdir.

Jinoyat maqsadi – shaxs jinoyat sodir etish orqali kelajakda erishishga intilgan natijadir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, motiv shaxs nima sababdan ushbu jinoyatni sodir etdi, degan savolga javob bersa, maqsad esa shaxs ushbu jinoyatni sodir etishda qanday natijaga erishmoqchi bo‘lganligini ifodalaydi. Masalan, A. qo‘snnisi B.ning qisqa vaqt ichida boyib ketganligini ko‘rolmay, uyda yo‘q payti uning mol-mulkini o‘g‘irlaydi. Bu misolda motiv – hasad bo‘lsa, maqsad esa o‘zganining mol-mulkini talon-toroj qilishdir. Jinoyat motivi va maqsadi qasddan odam o‘ldirish, g’arazgo‘ylik bilan amalga oshiriladigan talon-toroj, mansabdorlik, odam savdosi kabi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Kabulov R., Yakubov A.S., Shakurov R.R. va boshqalar. Jinoyat huquqi. Umumiyl qism. Uslubiy materiallar.—T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004.—53 b.
2. Usmonaliev M., Bakunov P.B. Jinoyat huquqi. Umumiyl qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. —T., «Yangi asr avlod», 2010, 664 bet.
3. Zokirova O.G'. Rashk motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari.(Monografiya).- T.: TDYUI, 2004. –202 b.
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.tsul.uz>
6. <http://www.norma.uz>